

UDC: 347(045)(575.1)

RAQAMLI HUQUQLARNI TARTIBGA SOLISH OMILLARI VA ZARURIYATI

Islomqulova Shohsanam Vahobjon qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti
ORCID: 0000-0001-6487-651X
e-mail: shoxsanams85@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli huquqlarning bugungi kunda qanchalik rivojlanib, hayotimizning barcha sohalariga kirib borayotganligi va shuning uchun ham ularni tartibga solishning zaruriyatiga aylanayotgani haqida so'z boradi. Bilamizki, bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalar, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, o'z navbatida, shaxslarning raqamli huquqlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi va uni tartibga solishdagi omillardan biri hisoblanadi. Maqolada raqamli huquqlarni tartibga solishga yana qanday omillar ta'sir ko'rsatayotgani birma-bir sanab o'tiladi. Raqamli huquq tushunchasi, uning axborot huquqi, mulk huquqi (ashyoviy huquq) kabilardan farqlari, uning fuqarolik huquqining obykti sifatidagi o'rni, huquqning qaysi turiga aloqadorligi yoki uning alohida huquq sohasi ekanligi to'g'risida fikr yuritiladi. Raqamli huquqlarni tartibga solish bo'yicha mamlakatimiz va xorijda amalga oshirilayotgan ishlar haqida namunalar keltirilgan. Shuningdek, muallif maqolada raqamli huquqlarni tartibga solish uchun, avvalo, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ularning fuqarolar tomonidan mukammal o'rganilishini ta'minlash zarur, degan pozitsiyani ilgari suradi.

Kalit so'zlar: mulk huquqi, ashyoviy huquq, raqamlashtirish, raqamli huquq tushunchasi, raqamli huquqlarni tartibga solish zaruriyati, raqamli huquqlarni tartibga solish omillari.

НЕОБХОДИМОСТЬ И ФАКТОРЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ПРАВ

Исломкулова Шохсанам Вахобжон кизи,
докторант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В этой статье обсуждается, как развиваются и проникают во все сферы нашей жизни цифровые права, почему возникает необходимость их регулирования. Известно, что сегодня в нашей стране принимаются комплексные меры по активному развитию цифровой экономики, широкому внедрению современных информационно-коммуникационных технологий во все отрасли, особенно в государственное управление, образование, здравоохранение и сельское хозяйство. Цифровая экономика, цифровые технологии в свою очередь оказывают непосредственное влияние на цифровое право личности и являются одним из факторов их регулирования. В статье указывается не только факторы, влияющие на регулирование цифровых прав, но и понятие цифрового права, его отличия от информационного права, место как объекта гражданского права, рассмотрено, к какому виду права оно относится или является ли отдельной отраслью права. Приведены примеры исследований, проводимых за рубежом и в нашей стране по регулированию цифровых прав. Также автор отмечает, что для регулирования цифровых прав необходимо, в первую очередь, развивать цифровые технологии и обеспечить улучшение знаний их гражданами.

Ключевые слова: имущественные права, вещное право, цифровизация, понятие цифрового права, необходимость регулирования цифровых прав, факторы регулирования цифрового права.

FACTORS AND NECESSITY TO REGULATE DIGITAL RIGHTS

Islomkulova Shokhsanam Vakhobzhon kizi,
Doctoral Student at
Tashkent State University of Law

Abstract. This article discusses how digital law is developing and penetrating all areas of our lives, and why there is a need to regulate them. We know that today our country is taking comprehensive measures to actively develop the digital economy and widely implement modern information and communication technologies in all sectors, especially in public administration, education, health and agriculture. The digital economy and digital technologies in turn have a direct impact on the digital right of the individual and are a factor in its regulation. The article identifies another factor influencing the regulation of digital rights: the concept of digital law, its difference from information law, its place as an object of civil law, and the kind of law it belongs to or its essence as a separate branch of law. Provided examples of work done abroad and in our country to regulate digital rights. Also, the author notes that the regulation of digital rights requires, first and foremost, to develop digital technology and to ensure the perfect study of citizens.

Keywords: property rights, proprietary law, digitalization, the concept of digital law, the need to regulate digital rights, factors of digital law regulation.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib ulgurgan. Axborot asrida yashayotganimiz sababli hayotimizni mobil telefonlar, kompyuterlar va albatta, Internet jahon axborot tarmog'i kabilarsiz tasavvur qila olmaymiz. Mamlakatimizda ham raqamlashtirish jaryonlari shiddat bilan amalga oshirilmoqda, desak xato bo'lmaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoniga muvofiq, yurtimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining bu boradagi reytingiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2021-yilda Bir-

lashgan Millatlar Tashkiloti Elektron hukumatning rivojlanish indeksi (e-Government Development Index)ga ko'ra, O'zbekiston tashkilotga a'zo 193 ta davlatning 87-pog'onasida turibdi [1]. Quyidagi jadval [2]da esa O'zbekistonning sobiq SSSR davlatlari va Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan reytingini taqqoslash orqali ko'rib chiqamiz (jadval).

Ko'rib turganimizdek, ayniqsa, oxirgi yillarda COVID-19 pandemiyasi elektron hukumat rolini yanada kuchaytirdi. Masalan, hujjatlarni biror manzilga jo'natmoqchi bo'lsak, buni ham elektron shaklda bemalol amalga oshirishimiz, onlayn xaridlar qilishimiz, elektron shartnomalar tuzishimiz mumkin. Bugungi davrning o'zi barcha ma'lumotlarni raqamli shaklga keltirish afzalroq va ish unumdorligiga sezilarli darajada ta'sir etishini ko'rsatmoqda. Ammo insonlarning raqamli huquqlari masalasi-ga kelsak, nazariyada ham, amaliyotda ham kam o'rganilganligi mavzuning dolzarbligini oshiradi.

Jadval

Elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha sobiq SSSR davlatlari reytingi

Davlatlar	Pog'onasi
Qozog'iston	29
Rossiya	36
Belarusiya	40
Gruziya	65
Armaniston	68
Ukraina	69
Ozarbayjon	70
Moldaviya	79
Qirg'iziston	83
O'zbekiston	87
Tojikiston	133
Turkmaniston	158

Shuningdek, shaxslarning raqamli huquqlari xavfsizligi masalasi so'roq ostida qolmoqda. Shuning uchun ham ushbu munosabatlarni tartibga solishni hayotning o'zi zaruratga aylantirmoqda.

Material va metodlar

Raqamli huquqlarni tartibga solish zaruriyatini quyidagi sabablarni tahlil qilgan holda tushuntirishga harakat qilamiz:

birinchidan, mulkiy munosabatlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'sib borayotganligi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy va ilm-fan sohasida ham rivojlanib boryapti va bu vujudga kelayotgan yangi munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni taqozo etadi. Afsuski, O'zbekiston ilm-fan nazariyalarida raqamli obyektlar va raqamli huquqlar o'rtasidagi aloqani fuqarolik-huquqiy tartibga solish bo'yicha yetarlicha tushunchalar, g'oyalar va ilmiy ishlar mavjud emas;

ikkinchidan, O'zbekiston qonunchiligida raqamli huquqlarni fuqarolik-huquqiy tartibga soladigan yagona tizimning yo'qligi. To'g'ri, oxirgi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yuzasidan samarali ishlar amalga oshirildi (O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni, Va-

zirlar Mahkamasining 185-son qaroriga 1-ilova "Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari"), shuningdek, davlat boshqaruvi sohasida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari (masalan, O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi va "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunlari) qabul qilindi. Ammo ularning barchasi raqamli huquqlar bevosita fuqarolik-huquqiy doirada yuzaga kelgan munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri tartibga solishda maxsus normativ-huquqiy hujjat bo'la olmaydi.

Ushbu tadqiqotning shakli va mazmunida umumiy metodlar: analiz, sintez, deduksiya, induksiya, shuningdek, gipoteza va analogiya metodlaridan foydalanildi. Huquqiy nuqtai nazardan esa maxsus metodlar: tarixiy-huquqiy metod, qiyosiy-huquqiy metod, analiz va huquqiy normalarni sharhlash kabilarga murojaat qilindi.

Tadqiqot natijalari

Dastavval "raqamlashtirish" va "raqamli huquq" tushunchalarining mazmuniga aniqlik kiritamiz. Texnik nuqtai nazardan raqamlashtirish – bu diskret signal impulslariga kodlangan har qanday ma'lumotlarni uzatish, boshqacha qilib aytganda, bu axborotni raqamli shaklda qayta ishlashdir [3].

A. Mareyning fikricha, "raqamlashtirish – bu bizning fikrlash tarzimiz, harakatimiz, atrof-muhit va bir-birimiz bilan aloqa qilishimizning paradigmali o'zgarishi" [4]. Ya'ni raqamlashtirishning aloqa va o'zaro munosabat paradigmasi o'zgarishidir. E.L. Vartanova, M.I. Maksyenko, S.S. Smirnovlarning ta'kidlashicha, "raqamlashtirish – bu nafaqat ma'lumotni raqamlashtirish, balki infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor, madaniy tabiatning kompleks yechimi" dir [5, 28-b.].

Shuningdek, E.V. Talapina [6, 5-18-b.] va L.V. Shmelkova [7]lar ham raqamlashtirish va raqamli huquqlar tushunchalariga to'xtalib o'tib, o'ziga xos ta'riflar berishgan.

Albatta, hozirgi texnologiya asrida “raqamlashtirish”, “raqamli texnologiya”, “raqamli iqtisodiyot” kabi tushunchalarni ko‘p uchratamiz. Ammo “raqamli huquq” tushunchasiga hamisha ham duch kelavermaymiz. Vaholanki, yuqoridagi tushunchalardan xavfsiz foydalanishimiz zamirida insonlarning raqamli huquqlari yotadi.

Ayrim olimlarning fikrlariga ko‘ra, “raqamli huquq” (digital rights) va “axborot huquqi” (information rights) tushunchalari aynan bir ma‘noni ifodalaydi [8, 16-b.]. Bunday fikrlarga sabab adabiyotlarda hozirgacha ular o‘rtasida aniq ajratishlar mavjud emasligi.

Quyida huquqshunoslar o‘rtasidagi eng ommabop bo‘lgan ikkita qarashni ko‘rib chiqamiz.

Raqamli huquqlar – odamlarning raqamli asarlardan foydalanish, yaratish va nashr etish, kompyuterlar va boshqa elektron qurilmalar, shuningdek, aloqa tarmoqlari, xususan, Internetga kirish va ulardan foydalanish huquqidan iborat [9]. Ya‘ni bir taraf yuristlar raqamli huquqlarni yuqoridagi ta‘rifda keltirilgan kabi tushunib, uni alohida huquq turi deya talqin qilishadi.

Ikkinchi taraf esa raqamli huquqlarni alohida huquq turi bo‘lmasdan insonning universal huquqlaridan biri deya hisoblashadi. Ya‘ni Konstitutsiyaning 29-moddasida har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega deb belgilab qo‘yilgan. Bu huquqlarning barchasi raqamli huquqlarni ham o‘z ichiga oladi va ularni alohida ajratish shart emas kabi qarashlar bor.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, raqamli huquqlar “axborot huquqi” va “aloqa huquqlari” kabi tushunchalarning sinonimlari sifatida qoraladi.

Masalaning yana bir jihatiga nazar tashlaymiz. Yaponiya olimlarida raqamli huquqlar mulk huquqining bir qismi bo‘la oladimi yoki alohida huquq turi hisoblanad-

imi, degan qarash mavjud. Bunday qarashga sabab esa raqamli huquqlarda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, yaratilgan muayyan ma‘lumotlarga nisbatan huquqdir. Ayniqsa, bunday ma‘lumotlar shartnomaning predmeti bo‘lganda, masala murakkablashadi. Yaponiyaning Fuqarolik kodeksi [10] ashyoga (moddiy turdagi) nisbatan huquq sifatida ashyo huquqi (mulk huquqi kabilar)ni belgilaydi. Ashyoviy huquqning o‘ziga xosligi unda (moddiy turdagi) bevosita va mutlaq idora etish xususiyati mavjudligidadir. Ya‘ni ashyoviy huquqlarda shaxslar o‘zlariga tegishli mulkdan erkin foydalanadi, egalik qiladi va tasarruf etadi.

Ashyo (moddiy ko‘rinishda) bo‘lgan ma‘lumot (masalan, qog‘oz ko‘rinishidagi)ga nisbatan mulk huquqini e‘tirof etish mumkin, ammo raqamli (elektron) shakldagi ma‘lumotlarga nisbatan mulk huquqini e‘tirof etish mushkul. Chunki bugungi Internet asrida uchinchi shaxslar tomonidan ma‘lumotlardan foydalanish, ularni tarqatishni chegara-

lash oson emas. Shundan kelib chiqqan holda, yapon huquqshunoslari orasida “raqamli huquqlar mulk huquqiga o‘xshab ketadi, ammo mulk huquqi emas”, – degan ibora yuradi.

Ammo professor R.I. Sitdikovanning fikrlariga ko‘ra, raqamli huquqlar mulk huquqining bitta turi, faqat uning yangi ko‘rinishidir [11, 75-76-b.].

Umuman olganda, jamiyat rivojlanib borar ekan, yangi-yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kelaveradi. Davlat esa tartibga soluvchi sifatida qonundagi huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirishi, ya‘ni bunday ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini yaratib, takomillashtirib borishi zarur. Shu o‘rinda raqamli huquqlarning tartibga solinishi bo‘yicha xalqaro amaliyotga to‘xalib o‘tamiz. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan raqamli huquqlarni ta‘minlashga qaratilgan bir qator rezolyutsiyalar mavjud. 2016-yil 27-iyundagi

“Internet huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qarori [12], “Raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqi to‘g‘risida”gi rezolyutsiya [13] kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, davlatlar miqyosida ham raqamli huquqlarni har tomonlama tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish bo‘yicha juda faol ishlar olib borilmoqda. Misol uchun, Italiyada 2015-yilda “Internetdagi huquqlar to‘g‘risida” Deklaratsiya [14] qabul qilindi. Xuddi shu yili Yangi Zelandiyada “Zararli raqamli aloqa to‘g‘risida” [15] deb nomlangan yana bir akt qabul qilindi. 2016-yil 7-oktabrda Fransiya-da “Raqamli respublika qonuni” [16] qabul qilindi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Demak, axborot texnologiyalari jadal hayotimizga kirib borar ekan, u bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish zaruriyatga aylanib qolgani yaqqol ko‘rinib turibdi. Yuqorida ham bir qator davlatlarda sohaga oid qabul qilingan turli normativ-huquqiy hujjatlardan namunalar ko‘rib chiqdik. Ammo ularning hech birida raqamli huquqlarni fuqarolik-huquqiy jihatdan bevosita tartibga solish haqida fikrlar bildirilmagan. Vaholanki, bugungi kunda, ayniqsa, elektron shartnomalar tuzish, ularda taraflarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishi, majburiyatlar uchun javobgarlik, shuningdek, ularda shaxsga doir ma‘lumotlarning xavfsizligi dolzarb masalaga aylanib ulgurgan.

Shuning uchun ham ushbu munosabatlarni umumiy normalar bilan tartibga solishdan ko‘ra, maxsus normativ-hujjatlar yaratish yoki mavjud qonunchilikka shunday normalar kiritish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Rossiya qonunchiligiga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, Rossiya Fuqarolik kodeksiga 2019-yilda 1411-modda [17] kiritilib, u “raqamli huquqlar” deb nomlandi. Unga ko‘ra, raqamli huquqlar qonun hujjatlarida belgilangan mezonlarga javob beradigan axborot tizimining qoidalariga muvofiq belgilanadigan majburiyatlar va qonunda shunday

nomlangan boshqa huquqlardir. Raqamli huquqni amalga oshirish, tasarruf etish, shu jumladan, birovga o‘tkazish, garovga qo‘yish, boshqa yo‘llar bilan yuklash yoki raqamli huquqni tasarruf etishni cheklash faqat axborot tizimida uchinchi shaxsga murojaat qilmagan holda ruxsat etiladi.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, axborot tizimi qoidalariga muvofiq, ushbu huquqni tasarruf etish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxs raqamli huquq egasi hisoblanadi. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar va asoslarda boshqa shaxs raqamli huquq egasi deb tan olinishi mumkin.

Bitim asosida raqamli huquqni o‘tkazish uchun bunday raqamli huquq bo‘yicha javobgar shaxsning roziligi talab etilmaydi.

Ammo ushbu moddada ham raqamli huquq tushunchasiga umumiy va tor ta‘rif berilgan va bu ko‘p savollar keltirib chiqaradi. Ya‘ni qanday huquqlar raqamli huquq deb ataladi, ularga nisbatan qanday axborot tizimi qoidalarini o‘rnatilgan, degan savollar ochiq qolgan. Bunga esa 2019-yil 18-martda qabul qilingan 34-FZ-son Federal qonunida [18] izoh berib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida bunday modda hali mavjud emas. Buni esa ushbu munosabatlar hali shaxslarning huquq va manfaatlariga o‘ta daxl qiladigan darajada rivojlanmaganligi bilan izohlashimiz mumkin. Yana bir narsani ta‘kidlash lozimki, bizningcha, fuqarolar, avvalo, raqamli huquqlardan foydalanishdan oldin raqamli texnologiyalardan foydalanishni mukammal bilishlari maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Raqamli huquqlarni tartibga solish quyidagi omillardan iborat:

ushbu munosabatlarni tartibga solishda huquqiy bo‘shliqlarning mavjudligi;

raqamli huquqlarda shaxsga doir ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash;

raqamlashtirish va shaxsning raqamli huquqlariga uchinchi shaxslar tomonidan

o'tkazilayotgan har qanday ta'sirning oldini olish;

huquqiy tartibga solish orqali moliyaviy tartibga solishga ham erishish;

texnologiyalar, shuningdek, jamoatchilik bilan aloqalarda sodir bo'layotgan jaryonlarni qisman nazorat qilish imkonining vujudga kelishi;

nizolarning oldini olish hamda ularni sud orqali oson va qonuniy hal etilishiga imkon yaratish.

Xulosalar

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin.

Birinchidan, mamlakatimiz va butun dunyoda ham raqamli huquqlarni tartibga solishga qaratilgan maxsus normativ-huquqiy hujjatlar yetarli emas. Avvalo, ta'kidlashimiz lozimki, raqamli huquqlar keng tushuncha bo'lib, bizningcha, u tadbirkorlik huquqi va ma'muriy huquqning ham obyekti bo'lishi mumkin. Ammo ushbu tadqiqotda raqamli huquqlar fuqarolik huquqining obyekti sifatida nimalarda namoyon bo'lishi o'rganiladi. Texnologik inqilob natijasida raqamli jamiyat va raqamli iqtisodiyot vujudga keldi, unda raqamli munosabatlar shakllanadi. Raqamli aloqalar raqamli element bilan murakkablashgan ijtimoiy munosabatlardir. Bu g'oya elektron hisoblash mashinalari qo'llanila boshlanganidan beri rivojlangan. Huquqshunoslikda bu yondashuv huquq tizimining mega tarmog'i – raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq har qanday munosabatlarni tartibga soluvchi qonun-qoidalaridan iborat raqamli qonunni ajratib ko'rsatishga imkon beradi [19, 3-5 b.].

Ikkinchidan, raqamli huquqlarni tartibga solish ko'plab muammolarning oldini olishga yordam beradi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan "Global raqamli inson huquqlari" loyihasi mavjud bo'lib, bugungi kunga qadar 35 mamlakatdan 60 dan ortiq tashkilot loyihani qo'llab-quvvatlash uchun petitsiyani imzolagan. Loyihaga ko'ra, raqamli inson huquqlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash va amalga oshirish raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq quyidagi qator global muammolarni yengib o'tishga yordam beradi [20]:

kibermakonning militarizatsiyasi va raqamli qurollanish poygasi;

sun'iy intellekt qiyinchiliklari;

raqamli texnologiyalarga asoslangan odamlarni umumiy kuzatish tizimi;

axborot va yangi texnologiyalarga kirish imkoniyatlaridan kelib chiqqan raqamli tafovut.

Uchinchidan, raqamli huquqlar mulkiy huquqqa o'xshab ketsa-da, biroq undan farq qiladi, ya'ni mulkka nisbatan huquqning raqamli texnologiyalar orqali vujudga kelishidir.

To'rtinchidan, raqamli huquqlarni tartibga solish uchun, avvalo, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ularning fuqarolar tomonidan mukammal o'rganilishini ta'minlash zarur.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ham Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksida bo'lgani kabi raqamli huquqlarga oid maxsus modda kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

REFERENCES

1. e-Government Development Index ga ko'ra, O'zbekiston tashkilotga a'zo 193 ta davlatning 87-pog'onasida turibdi [According to the e-Government Development Index, Uzbekistan ranks 87th out of 193 member states]. Available at: <https://gratanet.com/news/>.

2. Elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha sobiq SSSR davlatlari reytingi [Rating of e-government in the former USSR states]. Available at: <https://www.gazeta.uz/ru/2020/07/14/e-gov/>.
3. Tolkoviy slovar po informatsionnomu obshestvu i novoy ekonomike [Explanatory Dictionary of the Information Society and the New Economy]. Available at: http://information_society.academic.ru/.
4. Marey A. Tsifrovizatsiya kak izmenenie paradigmy [Digitalization as a paradigm shift]. Available at: <https://www.bcg.com/ru-ru/about/bcg-review/digitalization.aspx/>.
5. Keshelava A.V., Budanov V.G., Rumyantsev V.Yu. et al. Vvedenie v «Tsifrovuyu» ekonomiku [Introduction to the Digital Economy]. *Geosistem, VNII*, 2017, 28 p. (
6. Talapina E.V. Pravo i sifrovizatsiya: novie vizovi i perspektivi [Rights and digitalization: new visions and prospects]. *Jurnal rossiyskogo prava – Journal of Russian law*, 2018, no. 2, pp. 5-17.
7. Issledovanie rossiyskogo rinka onlayn-obrazovaniya i obrazovatel'nykh tekhnologiy [Research of the Russian market of online education and educational technologies]. Available at: <https://edmarket.digital/>.
8. Batanov A.G. Sifrovie prava kak ob'ekt grajdansko-pravovogo regulirovaniya [Digital rights as an object of civil law regulation]. Master's dissertation. Nizhniy Novgorod, 2020, p. 16.
9. Digital freedom: the case for civil liberties on the Net. *BBC News*, 1999, March 4.
10. Yaponiya fuqarolik kodeksi [Civil Code of Japan]. Article 85. Available at: <https://www.moj.go.jp/content/000056024.pdf/>.
11. Sitdikova R.I. Tsifrovie prava kak noviy vid imushchestvennykh prav [Digital rights as a new view of property law]. DOI: 10.24411/2072-4098-2018-19004/.
12. The promotion, protection and enjoyment of human rights on the Internet: resolution (adopted at the 32nd Session). Available at: <https://www.ohchr.org/EN/HRBodies/HRC/RegularSessions/Session32/Pages/ResDecStat.aspx/> (accessed 10.03.2020).
13. The right to privacy in the digital age: Resolution adopted by the General Assembly on 18 December 2013. Available at: <http://undocs.org/A/RES/68/167/>.
14. World News Publishing Focus. Available at: <https://blog.wan-iffra.org/2015/07/29/italy-leads-theway-with-internet-bill-of-rights/>.
15. Harmful Digital Communication Act 2015. Available at: <http://www.legislation.govt.nz/act/public/2015/0063/latest/whole.html/>.
16. The Digital Republic Bill-Overview. Available at: <https://www.republique-numerique.fr/pages/in-english/>.
17. Grajdanskiy kodeks Rossiyskoy Federatsii [Civil Code of Russian Federation]. Part 1. 30.11.1994, no. 51-FZ. Collection of legislation of the Russian Federation, 1994, no. 32, art. 3301.
18. Ekspertnoe zaklyuchenie po proektu federalnogo zakona № 424632-7 «O vnesenii izmeneniy v chasti pervuyu, vtoruyu i tretyu Grajdanskogo kodeksa Rossiyskoy Federatsii» [Expert Opinion on Draft Federal Law No. 424632-7 "On Amendments to Parts One, Two, and Three of the Civil Code of the Russian Federation"]. Adopted at a meeting of the Council under the President of the Russian Federation for the codification and improvement of civil legislation on January 17, 2019, no. 183-1/2019. KonsultantPlyus.
19. Laptev V.A., Tarasenko O.A. Tsifrovaya ekonomika: kontseptualnie osnovi pravovogo regulirovaniya biznesa v Rossii [Digital Economy: conceptual basis for legal regulation of business in Russia]. Moscow, Prospekt LLC, 2020.
20. The United Nations has launched the Global Digital Human Rights Project. Available at: <https://www.un.org/ru/un75/impact-digital-technologies/>.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y.f.d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 47.

TDYU tipografiyasida chop etildi.